



Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences

Journal home page:
<http://ijournal.uz/index.php/jartes>



ISSN 2181-2675 www.ijournal.uz

ANALYSIS OF THE CONCEPT, ESSENCE AND SCIENTIFIC TRENDS OF THE DIGITAL ECONOMY

Sindorov Lutfulla¹

Suyunov Abbos²

Suyundukov A'zimjon³

Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan

KEYWORDS

digital economy, trends,
digitization,
telecommunications, national
digital economic system,
informatization, information
technology, programs,
economic security

ABSTRACT

The article describes the definition of the digital economy concept, its essence and the trends of its development in our country. Also, the effect of reducing the human factor and improving quality with the help of digital technologies, as well as the impact of the development of the digital economy on the changes in the employment indicators of the population was considered.

2181-2675/© 2022 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: 10.5281/zenodo.7479640

This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

¹ Head of the Master's Department, Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan, UZB

² Student, Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan, UZB

³ Student, Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan, UZB

RAQAMLI IQTISODIYOT TUSHUNCHASI, MOHIYATI VA ILMUY TENDENSIYALAR TAHLILI

KALIT SO'ZLAR:

raqamli iqtisodiyot, tendensiyalar, raqamlashtirish, telekomunikatsiya, milliy raqamli iqtisodiy tizim, axborotlashtirish, axborot texnologiyasi, dasturlar, iqtisodiy xavfsizlik

ANNOTATSIYA

Maqolada raqamli iqtisodiyot tushunchasining ta'rifi, uning mohiyati hamda uni mamlakatimizda rivojlantirish tendensiyalari yoritilgan. Shuningdek, raqamli texnologiyalar yordamida inson omilini kamaytirish va sifatni oshirishi, shuningdek, raqamli iqtisodiyot rivojlanishining aholi bandlik ko'rsatkichlarining o'zgarishiga ta'siri ko'rib chiqilgan.

Raqamli iqtisodiyot – bu nafaqt iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy aloqalarni raqamli texnologiyalarni qo'llash asosida amalga oshirish tizimidir. Ba'zi zamonaviy olimlar raqamli iiqtisodiyni yangi iqtisodiyot, veb-iqtisodiyot yoki internet iqtisodiyoti degan termin-lar bilan ham ifodalanadi. Boshqacha aytganda raqamli iqtisodiyor bu yangidan boshlab yaratilishi lozim bo'lgan iqtisodiyot eman. Bu yangicha texnologiyalar, loyihalar, modellar va dasturlar yaratish va ularni amaliyatga tadbiq etish orqali iqtisodiyotdagi mavjud muammolarga yechim toppish yoki ularni bartaraf etishni yangicha tizimga ko'chirish deganidir.

Hozirgi kunda eng ko'p muhokama qilinadigan va dolzarb masalalardan biri raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi, shu bilan bir qatorda, raqamli iqtisodiyotni rivojlanishning eng yaxshi tajribalarini baholovchi tahlilchilar tomonidan ilmiy uslubiy materiallar va maqolalar tayyorlashda, barqaror rivojlanish shartlari va undan foydalanish samaradorligini baholashga alohida e'tibor berilmoqda.

Raqamli iqtisodiyot tushuncha sifatida 1995-yili Massachusetts universiteti professor olimi, amerikalik dasturchi Nikolas Negroponte tomonidan amaliyatga kiritilgan. Olim axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini intensiv rivojlanishi ortidan eski iqtisodiyotdan yangi iqtisodiyotga o'tishda, qanday o'zgarishlar ro'y berishi mumkinligini aytib o'tgan. Hozirda ushbu tushunchadan butun dunyo siyosatchilari, iqtisodchilari, jurnalistlari, tadbirkorlari - deyarli barcha foydalanmoqda. Raqamli iqtisodiyot - bu xo'jalik faoliyatini yuritish hisoblanadi. Bunda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishdagi asosiy omil raqamlar ko'rinishidagi ma'lumotlar bo'lib, katta hajmdagi axborotlarni qayta ishslash va analiz qilish yordamida har xil turdag'i ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, saqlash, qurilmalar, mahsulotlarni yetkazib berishda oldingi tizimdan samaraliroq yechimlar tadbiq qilishdir. Boshqacha qilib ta'riflaganda, raqamli iqtisodiyot bu asosan onlayn xizmatlar ko'rsatish, internet banking, onlayn o'yinlar, internet savdo, elektron to'lovlar amalga oshirish, kraufdanding va boshqa turdag'i sohalarni raqamli kompyuter texnologiyalarini rivojlanishi bilan bog'langan faoliyatdir.

Dunyoning istalgan mamlakatiga qaramaylik iqtisodiyotni raqamlashtirishga harakat qilinmoqda, va bu harakatni rivojlangan mamlakatlar "Aqilli iqtisodiyot" yoki

"Innovatsion iqtisodiyot"ga o'tayotgani bilan bog'liqdir. Mamlakatimizda ham so'nggi yillarda zamonaviy texnologiyalarga tayangan, raqamli iqtisodiyot va innovatsiyalarga katta ahamiyat berilmoqda. Raqamlashtirish davlat darajasiga ko'tarilgan bo'lib, bu borada turli xil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, 2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida 25-maqsad deb "Raqamli iqtisodiyotni asosiy «drayver» sohaga aylantirib, uning hajmini kamida 2,5 baravar oshirishga qaratilgan ishlarni olib borish" belgilangan.

Unga ko'ra quyidagilar belgilab olindi:

- 2026-yil yakuniga qadar bank va moliya sohalarida ishlab chiqarish va operatsion xarajatlarni 70 foizga oshirish;
- asturiy mahsulotlar industriyasi hajmini 5 baravar, ularning eksportini esa 10 baravar oshirib, 500 million AQSh dollariga yetkazish.

Shumday bo'lsa ham raqamli iqtisodiyotning барча тармоқлари iqtisodiyotning real sektorning rivojlanishi va iqtisodiy ko'rsatkichlariga ta'siri masalasi hali yetarlicha ochilmagan.

Tadqiqot ishidagi muammolarni o'rganishda bir qator usullar, xususan, tahliliy va muammolarni sintez qilish usulidan foydalanildi. Faqatgina bu usullar bilan chegaralanib qolmasdan, tadqiqot ishiga oid ishlarni, fikrlarni tahlil qilishda induksiya va deduksiya usullari keng qo'llanildi. O'zbekiston Respublikasi statistika qo'mitasi ma'lumotlarining tahlilida statistik ma'lumotlarni guruhash, solishtirma tahlil, tanlama kuzatuv usullaridan foydalanildi. Ishni mazmunini boyitish va unga xulosaviy fikrlarni berishda ilmiy abstraksiyalash kabi usulblardan samarali foy dalanildi.

Dunyo mamlakatlari kabi O'zbekistonda ham raqamli iqtisodiyot rivojlanmoqda. Kundalik hayotimizga axborot texnologiyalarni tadbiq qilinishi ortidan oddiy insonlar uchun ko'plab imkoniyatlar yaratilmoqda. Hozirga kunda uydan chiqmasdan ko'plab oziq-ovqat mahsulotlari va taomlariga buyurtma berishimiz, ularni uyimizgacha yetkazib berishlari mumkin. Lekin shuni ta'kidlash kerak-ki, O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot O'zbekiston potensialiga nisbatan bir necha barobar sekinroq rivojlanmoda. Ya'ni imkoniyat bor, kerakli resurslar mavjud lekin rivojlanish ancha sust. Bunga sabab sifatida raqamli iqtisodiyotni O'zbekistonda rivojlanishini bir qancha to'siqlarini ko'rsatib o'tish mumkin.

Zamonaviy dunyoda axborot texnologiyalarini rivojlanishi va hayotga tadbiq qilinishi evaziga kundalik hayotimizda juda ko'plab qulayliklar yaratilmoqda. Aytaylik uyda ovqat tayyorlashni xushlamaysiz, muammo yo'q, internet orqali ovqat yetkazib berish xizmatiga onlayn buyurtma berishingiz yoki taksi xizmatlari orqali ovqat keltirib berishlarini so'rashingiz mumkin. Yoki do'stingizga pul o'tkazishingiz lozim. Bank yoki moliya muassasalariga borib ovora bo'lishga hojat yo'q. Pulni onlayn pul o'tkazish va to'lov platformalari yoki ilovalar orqali o'tkazishingiz mumkin. Shu kabi bir qancha xizmatlarni onlayn tarzda, smartfoningiz yoki kompyuteringiz orqali amalga oshirishingiz mumkin. Zamonaviy texnologiyalar va platformalarda ishlash mijozlar, hamkor va davlat tashkilotlari

bilan shaxsiy muloqotni minimallashtirish hisobiga korxonalar va jismoniy shaxslarga xarajatlar segmentini qisqartirishga yordam beradi. Shuningdek, o'zaro muloqot jarayonini tez va oson amalga oshirishga imkoniyat yaratmoqda. Natijada tarmoq resurslariga asoslangan, raqamli yoki elektron iqtisodiyot paydo bo'ldi.

So'nggi o'n yillikda butun dunyo bo'ylab raqamli ma'lumotlarga asoslangan biznes modellaridan foydalangan holda ko'plab raqamli platformalar paydo bo'ldi va ular mavjud sanoat tarmoqlari o'rnini egalladi. Platformalarning ustunligi shundaki, bozor kapitallashuvi bo'yicha dunyodagi yetakchi sakkizta kompaniyaning yettitasi platformaga asoslangan biznes modellaridan foydalanishadi.

O'zbekistonda zamonaviy texnologiyalarini rivojlantirish, zamon talablariga javob beradigan elektron davlat xizmatlari ko'rsatishning yangicha tizimini yaratish, mansabdor shaxslarning aholi bilan muloqot qilishining yangi mexanizmlarini joriy etish yuzasidan ilmiy ishlar olib borilyapti. Shunday masalalar bo'yicha dolzarb bo'lgan chora-tadbirlarni ishlab chiqilishiga va amaliyotga joriy etilishiga Prezidentimizning 2018-yil 19-febraldagi "Axborot texnologiyalari va kom- munikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5349-son Farmoni asos bo'ldi. Farmonda bir qator vazifalar, shuningdek, "Raqamli O'zbekiston" konsepsiyasini ishlab chiqish belgilab berildi. Davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish, raqamli iqtisodiyotni joriy etish va rivojlanti- rish uchun shart-sharoitlar yaratish, investi- siya muhitini yaxshilash, shuningdek, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivoj- lantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Preziden- tining 2018 yil 3 iyuldagagi "O'zbekiston Respu- blikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlanti- rish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3832- son, 2018 yil 2 sentabrdagi "Raqamli ishonch" raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash jamg'armasini tashkil etish to'g'risida" PQ-3927-son qarorlari qabul qilindi.

Raqamlashtirishni noldan qurish mumkin yoki mavjud biznes-jarayonini o'zgartirish mumkin. Masalan, ko'plab mahalliy banklar bu masala bo'yicha yetakchilikka aylandi va murakkab, ammo AT ni o'z muammolarini hal qilish uchun bosqichma-bosqich joriy qilmoqdalar. Bu erda texnologik kompetensiya va zarur infratuzilmaga ega bo'lish, raqamli strategiyani ishlab chiqish zarurligini tushunish muhimligini ta'kidlash kerak. Ushbu omillarning mavjudligi yoki yo'qligi va muayyan korxona/tashkilotning raqamli transformatsiyasi jarayonining samaradorligiga ta'sir qiladi.

Statistik ko'rsatkichlar shuni ko'rstadiki O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotning YaIM dagi ulushi 2,2% ni tashkil qilar ekan. Dunyo bo'yicha esa o'rtacha muqobil ko'rsatkich 7-8% ni tashkil qilar ekan. Masalan, Buyuk Britaniyada 12,4%, Janubiy Koreya-8%, Xitoy - 6,9%, Hindiston - 5,6%, Rossiyada - 2,8%, Qozog'iston- 3,9% ni tashkil etadi.

Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda zamonaviy ilmiy yondashuvlar va innovatsiyalar muhim hamda ustuvor ahamiyatga ega bo'ladi. Qachonki davlatlarda raqamli iqtisodiyot rivojlanib borsa albatta YaIM hajmi va YaIMning aholi son boshiga ulushi ham oshib boradi. Shu jihatdan, davlatimiz rahbarining bu masalaga katta e'tibor qaratishidan

maqsad ham shu, ya'ni, avvalo, aholining turmush darajasini oshirish, so'ngra, aholining real daromadlarini ko'paytirish va ko'p nutqlarida aytganidek xalqimizni bizdan rozi qilishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-noyabrdagi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora – tadbirlari to'g'risidagi PF-6079 sonli farmoni.
2. Ш.М.Мирзиёев. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Тўлдирилган иккинчи нашри. Тошкент: "Ўзбекистон" нашриёти, 2022. – 174-бет
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон Фармо- нига 1-илова.
4. Boltayeva M., Suyunov A. Mustaqillik yillarida aholiga ijtimoiy-iqtisodiy xizmat korsatish strukturasini takomillashtirish //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 538-541.
5. Ilyos o'g'li, Suyunov Abbos. "RAQAMLI IQTISODIYOT: VUJUDGA KELISHI, SAMARADORLIGI, IJOBIY VA SALBIY JIHATLARI." International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research (2022): 75-79.
6. G'.M. Porsaev, B.SH. Safarov, D.Q. Usmanova. Raqamli iqtisodiyot asoslari. Darslik. –T.: "Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi", 2004.
7. B.Shafarov, U.X.Narzullayev, N.R.Zaynalov, G'.M.Porsaev; Milliy iqtisodiyotda axborot tizimlar va texnologiyalar. O'quv qo'llanma// Samarqand: SamDU nashri, 2019, 272 b.
8.
<https://uza.uz/uz/posts/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020>
9.
<https://review.uz/oz/post/raqamli-iqtisodiyot-mamlakatimiz-taraqqiyoti-garovidir>
10. Raqamli iqtisodiyot: mutaxassislar ushbu atamani qanday tushunishadi [elektron manba] https://news.rambler.ru/economics/37159885/?utm_content=rnews&utm_medium=readmore&utm_source=copylink (murojat: 04/30/2018)
11. <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>
12. <https://stat.uz>
13. <https://zarnews.uz/uz/post/raqamli-iqtisodiyot-bizga-nima-beradi>
14. <https://mineconomy.uz/uz/node/2389>
15. <https://yuz.uz/uz/news/ozbekistonda-raqamli-iqtisodiyotni-rivojlantirish>
16. <https://aniq.uz/uz/yangiliklar/raqamli-iqtisodiyot-nima>
17. <https://review.uz/uz/post/raqamli-iqtisodiyot-mamlakatimiz-taraqqiyoti-garovidir>